

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHISINING KASBIY POTENSIALINI RIVOJLANTIRISHNING SHART -SHAROITLARI

Raxmonova Mehrixon Xoshimovna

Farg’ona viloyati Pedagoglarni yangi metodikalariga o’rgatish milliy markazi o’qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqola umumiy va kasbiy bilimlarni oshirish, yangi raqobatbardosh g‘oyalarni ilgari surish, shuningdek, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy potensialini rivojlantirishga qaratilgan shart-sharoitlar haqida.

Kalit so‘zlar: innovatsion, integratsiya, intellektual, kreativlik, potensial, kognitiv, operatsion, akseologik, refleksiv.

REQUIREMENTS FOR THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL POTENTIAL OF PRIMARY CLASS TEACHERS

Rakhmonova Mehrikhon Khoshimovna

Fergana region Teachers of new methods teacher at national training center

This article deals with conditions aimed at increasing general and professional knowledge, promoting new competitive ideas, and developing the professional potential of primary school teachers.

Key words: innovative, integration, intellectual, creative, potential, cognitive, operational, axiological, reflective.

ТРЕБОВАНИЯ К РАЗВИТИЮ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ПОТЕНЦИАЛА УЧИТЕЛЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Рахмонова Мехрихон Хошимовна

Ферганская область. Преподаватель национального учебного центра обучение педагогов новым методикам

Аннотация. В данной статье речь идет об условиях, направленных на повышение общих и профессиональных знаний, продвижение новых конкурентоспособных идей, развитие профессионального потенциала учителя начальных классов.

Ключевые слова: инновационный, интеграционный, интеллектуальный, креативный, потенциальный, когнитивный, операционный, аксиологический, рефлексивный.

Jamiyatimiz ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini takomillashtirish yolidagi islohotlarining asl maqsadi, o‘sib kelayotgan yosh avlodni jamiyatimiz uchun munosib – bilimli, yuksak intellektual salohiyatga ega, ma’naviy jihatdan barkamol insonlar qilib voyaga yetkazishdir. Bu albatta har tomonlama salohiyatli, boy tajribaga ega, zamon talablari asosida faoliyat yurituvchi o‘qituvchilar zimmasiga yuklanadi. Shu bois ham bugungi kunda, pedagoglarning ijtimoiy yetukligi, faolligini oshirish hal qiluvchi dolzarb strategik masalalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Ta’lim jarayonini rivojlantirish va o‘quv tarbiya jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarning keng joriy etilishi, o‘qitish usullarining samarali turlaridan foydalanish, ta’lim jarayonining sifatlari bo‘lishini ta’minlaydi. Shuningdek, boshlang‘ich ta’limning samaradorligini ta’minalashda o‘qituvchining shaxsiy sifatlari va pedagogik mahorati ham muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘qituvchi ko‘p jihatdan o‘quvchi uchun o‘rnakdir. O‘tgan asrning 70-yillari oxirlarida A.M.Arseneva, K.N.Volkov, M.N.Skatkin va O‘zbekistonlik pedagog olimlardan J.Yo‘ldoshev, N.Saidahmedov, U.Nishonov, M.Jumaniyozova, M.Ochilovlar ta’lim muassasalarida sifatli ta’lim beish o‘qituvchining ta’lim jarayoniga yangiliklarni kiritishga tayyorgarlik darajasi bilan bog’liqligini asoslab berdilar. Shu nuqtayi nazardan olib qaraganda, mustaqil fikrlovchi, ijodkor, vatanparvar shaxsni shakllantirishning asosiy muhim omillaridan biri – boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy potensialga egaligidir.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘z kasbining mutaxassisasi sifatida takomillashtib borishi quyidagi komponentlarda namoyon bo‘ladi: aniq maqsad, o‘zining ishchanlik faolligini oshirish, izchil ravishda yangilanib borayotgan pedagogik bilimlarni o‘zlashtirib faoliyatiga joriy etish, ilg‘or texnologiyalar, metod hamda vositalardan habardor bo‘lishi, faoliyatiga fan texnikaning yangiliklarini samarali tadbiq etish, kasbiy malakalarni takomillashtirish, ko‘nikma salbiy pedagogik nizolarning oldini olish, ularni bartaraf etish choralarini izlash yo‘lida olib boriladigan amaliy harakati uning o‘z ustida ishlashi va kasbiy potensialini takomillashtirishining asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

O‘qituvchining pedagogik potensiali deganda -umumiy ma’noda potensial (lotincha potesial –

umumlashtirilgan qobiliyat, imkoniyat, kuch) vositalar, zaxiralar, mavjud va safarbar etilishi mumkin bo'lgan manbalar sifatida qaraladi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi pedagogik jarayonni to'g'ri boshqara olishi uchun chuqur bilim va kasbiy kompetentsiyaga ega bo'lishi lozim. Shuningdek, zamonaviy o'qituvchining imidji ham uning kasbiy muvaffaqiyatlarini belgilaydi. Shu o'rinda Makarenkoning "Bolalarni bizning gap so'zlarimiz emas, balki xatti-harakatlarimiz tarbiyalaydi", degan so'zlarini keltirish mumkin.[6]. O'qituvchi barkamol avlodni tarbiyalash jarayonida ishtirot etar ekan, nafaqat ma'naviy-axloqiy madaniyati bilan atrofdagilarga o'mak bo'lishi, shu bilan birga, pedagogik mahorat qirralarini namoyon eta olishi, komil insonni tarbiyalashga, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash ishiga o'zining munosib hissasini qo'shishi zarur.

Pedagogik mahoratning o'ziga xos xususiyatlardan yana biri, bugun yuz berayotgan tub o'zgarishlar zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayonida muvaffaqiyatli qo'llashning innovation yondashuvlari motivatsion, kognitiv, operatsion, akseologik, refleksiv va o'z-o'zini baholash, o'qituvchiga o'zini-o'zi rivojlantirish va zamon ta'lim talablariga javob berishda yanada ko'proq mas'uliyat yuklaydi. Shu bilan birga o'quvchi shaxsi, o'ziga xos xususiyatlari, uning intilishlari, qobiliyati va qiziqishlari ustuvorligi, shakli, vositalari va usullarini tanlashda innovation texnologiyalarga asoslanilganligi, o'quvchilarda fanlarni o'rganish va ta'lim olishni davom ettirish uchun tayanch va fanlarga oid umumiyligini kompetensiyalarni rivojlantirish, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning tajribasidan milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda foydalanish asosiy prinsiplari etib belgilandi. [1]

Shuningdek, o'qituvchi o'quvchi shaxsini etuk barkamol inson etib tarbiyalashda, quyidagi kompetensiyalarni shakllantirishi zarur.

Kommunikativ kompetensiya — ijtimoiy vaziyatlarda ona tilida hamda birorta xorijiy tilda o'zaro muloqotga kirisha olishni, muloqotda muomala madaniyatiga amal qilishni, ijtimoiy moslashuvchanlikni, hamkorlikda jamoada samarali ishlay olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Axborotlar bilan ishslash kompetensiyasi — mediamanbalardan zarur ma'lumotlarni izlab topa olishni, saralashni, qayta ishslashni, saqlashni, ulardan samarali foydalana olishni, ularning xavfsizligini ta'minlashni, media madaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

O'zini-o'zi rivojlantirish kompetensiyasi — doimiy ravishda o'z-o'zini jismoniy, ma'naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirish, kamolotga intilish, hayot davomida mustaqil o'qib-o'rganish, kognitivlik ko'nikmalarini va hayotiy tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish, o'z xatti-harakatini muqobil baholash va mustaqil qaror qila olish ko'nikmalarini egallashni nazarda tutadi.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi — jamiyatda bo'layotgan voqeja, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va ularda faol ishtirot etish, o'zining fuqarolik burch va huquqlarini bilish, unga rioya qilish, mehnat va fuqarolik munosabatlarida muomala va huquqiy madaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Milliy va umummadaniy kompetensiya — vatanga sadoqatli, insonlarga mehr oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e'tiqodli bo'lish, badiiy va san'at asarlarini tushunish, orasta kiyinish, madaniy qoidalarga va sog'lom turmush tarziga amal qilish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi — aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy rejalarini tuza olish, kundalik faoliyatda turli diagramma, chizma va modellarni o'qiy olish, inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumtdorligini oshiradigan, qulay shart-sharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan foydalana olish.

Modomiki shunday ekan, yuqori intellektual salohiyat, yuqori kasbiy malakaga ega bo'limgan boshlang'ich sinf o'qituvchilar yosh avlodga zarur va yetarli darajada ta'lim-tarbiya berish, ularda yuksak ma'naviy axloqiy xislatlarni shakllantirish imkoniga ega bo'lmaydi.

Abu Nasr Forobiyning "Fozil odamlar shahri", "Baxtga erishish haqida" kabi asarlarida, inson o'zida komillik sifatlarini tarkib toptirish uchun, birinchi navbatda, ilmiy bilimlarni egallamog'i lozim, shuningdek u shaxs aqliy rivojlanishining asosi sifatida idrok qilish va fikrlash qobiliyatlarining ahamiyatini alohida qayd etadi.[5] Bunday islohotlar pirovardida kelajagimiz vorislari bo'lgan yosh avlodning mustahkam bilim olishlari, olgan bilimlarini kundalik faoliyatda qo'llay olishlariga, komil insonlar bo'lib voyaga yetishlariga imkoniyatlar yaratadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, avvalo o'qituvchilarining doimiy kasbiy rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar taqdim etadigan ta'lim muhitini yaratishdan iboratdir.

Malaka oshirish tizimida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy potensialini rivojlantirish hamda samarali o'qitishning pedagogik shart-sharoitlarini alohida ajratib ko'rsatish mumkin.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining malaka oshirishi, uzlusiz ta'lim olishi uchun qator qulayliklar yaratildi. 2022-yildan boshlab xalq ta'limi o'qituvchilarini uzlusiz kasbiy rivojlantirish tizimi yo'lga

qo'yildi. Unga ko'ra o'qituvchilarni kasbiy potensiali rivojlantirishda ta'lim olishning quyidagi shakllaridan foydalaniлади:

- ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta'lim olish;
- ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta'lim olish;
- masofaviy ta'lim;
- dual ta'lim;
- mustaqil ta'lim;
- malaka oshirishning muqobil shakllari.

Ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta'lim olish o'qituvchilarning o'z mehnat faoliyatidan bo'sh vaqtida (o'quvchilarning ta'tili, o'qituvchilarning darsdan bo'sh kunlari yoki boshqa hollarda) pedagogik markazlarda, shuningdek, o'qituvchilarning bevosita ish joyida amalga oshiriladi.

Ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta'lim olish masofaviy shaklda ham amalga oshirilishi mumkin.

Masofaviy ta'lim o'quv rejalarini va dasturlariga muvofiq ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda internet jahon axborot tarmog'idan foydalangan holda masofadan turib olishni nazarda tutadi.

Ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta'lim olish (kunduzgi) – o'qituvchilarning o'z ish joylaridan to'la ajralgan tarzda pedagogik markazlarda o'qishini nazarda tutadi. Ta'lim olishning mazkur shakli ko'chma (o'qituvchilarning yashash hududida) va stajirovka tarzida ham tashkil etilishi mumkin.

Dual ta'lim o'quv kursining nazariy qismini tinglovchi tomonidan ixtisoslashtirilgan ta'lim tashkilotida, amaliy qismini esa ish joyida amalga oshirishni nazarda tutadi. Dual ta'lim shaklida amalga oshiriladigan o'quv kursi dasturini to'liq o'zlashtirgan tinglovchilarga belgilangan hajmdagi kredit ballari beriladi.

Mustaqil ta'lim o'qituvchilar tomonidan o'z lavozimi va mutaxassisligi bo'yicha yangi bilim, ko'nikma va malakalarni ta'lim oluvchi tomonidan tuzilgan uzlusiz kasbiy ta'lim trayektoriyasi asosida mustaqil o'zlashtirishni nazarda tutadi. O'qituvchining kasbiy ehtiyojlariga ko'ra mustaqil malaka oshirishi elektron platforma orqali amalga oshiriladi. Elektron platforma har bir o'quv moduli ta'lim oluvchi tomonidan o'zlashtirilishini nazorat qiladi, baholaydi va o'zlashtirilgan modullar bo'yicha kredit ballarni jamlab boradi.

Hozirgi kunda pedagogika markazlarida o'qituvchilar uchun elektron platforma yaratilgan. Bu platformaning vazifalari o'qituvchilarning uzlusiz kasbiy rivojlantirish tizimi faoliyatini tashkil etish, har bir o'qituvchining malaka oshirishi jarayonlarini monitoring qilish va shaxsiy hisobini yuritish imkoniyatini ta'minlovchi yagona ma'lumotlar bazasiga asoslangan.

Ushbuga ko'ra, malaka oshirish uchun unga zarur o'quv modullarini tavsija etadi. Individual malaka oshirish trayektoriyasi bo'yicha o'qishini tashkil qilib, monitoringini olib boradi, o'zlashtirishni baholaydi. Kurs yakunida bilim ko'nikmalarni o'zlashtirganligini yakuniy baholaydi va sertifikatlar taqdim qiladi. Yakuniy baholashdan o'ta olmagan pedagogga qayta o'qish imkoniyatini beradi.

O'qituvchilar malakasini oshirishning muqobil (ta'lim dasturlarisiz malaka orttirish) shakllari quyidagilardan iborat:

darslikka mualliflik qilish;

doktorlik ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiyani himoya qilish;

xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy anjuman (seminar, konferensiya, simpozium va boshqa)larda ma'ruba bilan ishtirok etish;

ilmiy-tadqiqot natijalari asosida xalqaro indeksatsiyalangan bazalarda (Scopus, Web of Science) e'tirof etilgan jurnallarda maqola nashr etish;

Ro'yxati Vazirlik tomonidan tasdiqlanadigan boshqa faoliyatlar.

Muqobil malaka oshirish shakllarida shug'ullanish natijalari (kredit ballari) uzlusiz kasbiy ta'limning natijalarini umumlashtirishda hisobga olinadi.

Yuqorida yaratilayotgan sharoitlar, o'qituvchilarning kasbiy potensiallarini rivojlantirish imkoniyatini beradi. Bunda pedagoglardan ham o'z ustida muntazam ishlashi, jarayonga mas'uliyat bilan yondashishi, kasbiy rivojlanishi bilan bog'liq ma'lumotlarni jon dili bilan o'rganib borishlari talab etiladi.

Darhaqiqat, davlatimiz tomonidan ta'lim tizimini takomillashtirishga bo'lgan e'tibor, bu ulug' xalqimiz, kelajagimiz va ertangi kunimizga bo'lgan e'tibordir.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini oshirishda yuqorida zikr etilgan (omil)larga ustuvor masala tarzida ehtibor berish talab etiladi. Ta'lim tizimining rivojlanishi pedagoglarning faoliyatiga ham uzviy bog'liq ekan, bugungi kun talab va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, zamонавиъ pedagog o'z kasbining yetuk mutaxassisi bo'lishi va pedagogik mahoratni chuqr egallashi, shu ma'noda, nazariy bilimlarini amaliyatga faol tatbiq etishi ta'lim tizimining taraqqiyotiga xizmat qiladi.

Pedagogik mahorat shunday malakalar yig'indisiki, uning natijasi o'qituvchi mehnatida va o'quvchilar

xulqi, odobi, tarbiyasida, kelajakda yetuk komil inson bo‘lib yetishishida o‘z aksini topadi. O‘qituvchi mehnatining muvaffaqiyati va samarasi uni ilmiy jihatdan puxta tashkil etishga, mehnatni oqilonan uyuştirishga ta’sir etadigan shart-sharoitlarga hamda mehnatni amalga oshirish yo‘llarini to‘g‘ri belgilashga bog‘liq.

Foydalanimanilgan adabiyotlar.

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiyl o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida” 2017-yil 6-aprel 187- son qarori.

2.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 17-yanvardagi “Xalq ta’limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 25-son Qarori.

3.Osnovi pedagogicheskogo masterstva / Pod red. A.Zyuzina. – Moskva: Prosveshenie, 1989. – 302 s.

4. 6. Абӯ Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. –Т.: 1993. 164-

5.Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiyalar / Ma’ruzalar matni. Tuzuvchilar: A.X.Qosimov, F.A.Holikova. – Toshkent: TATU, 2004. – 132 bet.

6.Karimova M.O PEDAGOGICAL BASES OF TRAINING OF FUTURE TEACHERS, “O‘zbekiston Milliy universitetining ilm-fan rivoji va jamiyat taraqqiyotida tutgan o‘rnii” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya, 2023 yil, 12 may

7.Rakhmonova M.Kh. Pedagogical bases of preparation of primary school teachers for innovative activity// Academiya: An International Multidisciplinary Research. Journal- India 2021. Б. 461-464.

8.Raxmonova M.X. Yangi taraqqiyot dayrida boshlang‘ich ta’limning innovatsion rivojlanish echimlari // “Pedagogik faoliyatning samarali innovation amaliyoti, tajriba va yechimlari”/ Xalqaro va onlayn ilmiy-amaliy konferensiya 2021 Namangan. Б.68-71

9.Inoyatov U. Zamonaviy darsliklar, o‘quv-metodik majmular, elektron didaktik vositalarni yaratishga innovatsion yondashuv // Xalq ta’limi. – Т., 2018. - № 3. – 9-11-b

10.Bayto’raeva N.I. Mustaqil ta’lim faoliyatida bo’lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini ijodiy kompetentligini rivojlantirish. ..diss..2022